ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№4(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 242 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili ..... 16
Salim Doniyorov

Axborot komunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish ..... 21
Djo'rayev Yorqin Xolniyozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna

Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish ..... 26
Djo'rayev Yorqin Xolniyozovich

Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ..... 29
Yunusov Dilshod Raxmatovich

Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ..... 32
Aliqulova Habiba Bahranovna

Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri ..... 36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi

Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli ..... 41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna

Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин ..... 44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна

STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari ..... 49
Tashibekova Munojat Xoshimovna

Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari ..... 53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna

O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati ..... 59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi

O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend ..... 64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi

Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati ..... 67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna

Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari ..... 69
N. A. Musayeva

Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari ..... 76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi

Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching ..... 81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari ..... 84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna

Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati ..... 87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna

Qo'ng'irot tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari ..... 90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna

Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti ..... 93
Shamuratov Asqar Abdullayevich

The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills .................................... 98
Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li

Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari ................................................ 106
Sobitov Otabek

O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari .............................................. 111
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi

Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati ............................................................................ 114
Xasanova Sarvinoz To'lqinjon qizi

Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differensiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi ................................................................................................ 118
Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich

Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения ............................ 123
Хамидова Гулноза Турсунбой кизи

Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari ................ 127
Adizova G. M.

Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash .......................................................................... 131
Ismoilova Adolat Anvarovna

STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi ........ 134
So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari ........................................................................................ 138
Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi

Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli ........................................................... 142
Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari ................................. 146
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari ............................................................................. 150
Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi

Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida ......................................................................................................... 153
Shanazarov Otabek

Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari ......... 158
Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso

Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili .................. 161
Xaydarov Xurshid Ismatovich

Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ..................................................................................................................... 166
Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi

Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari ....... 170
Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari ............................................................................................ 173
Abduraxmanov M. B.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash ........................................................................ 178
Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna

Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish ................................................................................... 181
Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi

Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research ........ 183
Fozilova Maxina Adashevna

Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli ............................... 188
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li

Boshlang'ich tayyorlov guruhida uloqtirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi..........191
Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati..........197
Inoyatova Zulfiya Xamdamovna

Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari..........199
Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi

Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish..........203
Kayumov Oybek Achilovich

Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish..........209
Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish..........211
Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna

Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish..........214
Rayimova Shahlo Sobirjon qizi

STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari..........217
Toshev Elbek Choriyevich

Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli..........223
Usmanov Botir Allaberdiyevich

Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati......227
Xalilova Dilnoza Furkatovna

Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni..........230
Xodiyeva Dilrabo Pirimovna

Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education..........233
Yunusova Nodira Akhmadjanovna

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari..........237
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna

# MAXSUS TA'LIM DASTURLARI ORQALI IQTIDORLI TALABALARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Rayimova Shahlo Sobirjon qizi
Pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Ismoilova Adolat Anvarovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
pedagogika kafedrasi dotsent v.b. PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtidorli talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda maxsus ta'lim dasturlarining o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda iqtidorlilik tushunchasi, ijodiy salohiyat komponentlari, xorijiy va mahalliy tajribalar, shuningdek, maxsus dasturlarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi ko'rib chiqiladi. Maqolada iqtidorli talabalar bilan ishlashning metodologik asoslari, amaliy yondashuvlar va ularning samaradorligini baholash mezonlari taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** iqtidorli talabalar, ijodiy salohiyat, maxsus ta'lim dasturlari, kreativlik, differensiatsiyalashgan ta'lim, intellektual rivojlanish.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the role and significance of special educational programs in developing the creative potential of gifted students. The study examines the concept of giftedness, components of creative potential, foreign and local experiences, as well as the integration of special programs into the educational process. The article presents methodological foundations for working with gifted students, practical approaches, and criteria for evaluating their effectiveness.

**Key words:** gifted students, creative potential, specialized educational programs, creativity, differentiated education, intellectual development.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется роль и значение специальных образовательных программ в развитии творческого потенциала одарённых студентов. В исследовании рассматриваются понятие одарённости, компоненты творческого потенциала, зарубежный и отечественный опыт, а также интеграция специальных программ в образовательный процесс. В статье представлены методологические основы работы с одарёнными студентами, практические подходы и критерии оценки их эффективности.

**Ключевые слова:** одарённые студенты, творческий потенциал, специализированные образовательные программы, креативность, дифференцированное обучение, интеллектуальное развитие.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi sharoitida intellektual va ijodiy salohiyatga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash masalasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohasidagi yangi kashfiyotlar ko'plab hollarda aynan iqtidorli shaxslarning faoliyati bilan bog'liqdir. Shu sababdan iqtidorli yoshlarni erta aniqlash, ularning qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirish va bu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish – zamonaviy pedagogika fanining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning bir qator qaror va farmonlarida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasiga alohida urg'u berilgan. Jumladan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" iqtidorli o'quvchi va talabalar bilan ishlashni tizimlashtirish zaruratini belgilab beradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, iqtidorli talabalar odat-

dagi ta'lim dasturlari doirasida o'z salohiyatlarini to'liq namoyon etishga imkon topa olmaydilar. Standart o'quv dasturlari ommaviy auditoriya uchun mo'ljallanganligi sababli, iqtidorli talabalarning chuqurroq bilish ehtiyoji, ijodiy izlanishga intilishi va tezroq fikrlash sur'ati ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Maxsus ta'lim dasturlari esa aynan shu kamchilikni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Iqtidorlilik muammosi psixologiya va pedagogika fanida uzoq tarixga ega.

J.P. Guilford (1956) kreativlikni mustaqil intellektual qobiliyat sifatida tavsiflab, uni divergent fikrlash bilan bog'laganligini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, ijodiy fikrlash divergent (ko'p yo'nalishli) xususiyatga ega bo'lib, bu iqtidorli shaxslarda yaqqol namoyon bo'ladi.

B. Bloom esa o'zining taksonomiyasida bilimlarni o'zlashtirish bosqichlarini tahlil qilib, eng yuqori darajalar – tahlil, sintez va baholash – aynan iqtidorli o'quvchilarda rivojlanishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi.

Renzulli (1978) ning "Uch halqa" modeliga ko'ra, iqtidorlilik uchta komponentning kesishmasida vujudga keladi: yuqori intellektual qobiliyat, ijodkorlik va vazifaga bo'lgan yuksak motivatsiya. Ushbu model keyinchalik ko'plab tadqiqotchilar tomonidan kengaytirildi va maxsus ta'lim dasturlarini loyihalashda asosiy nazariy manba sifatida qo'llanila boshladi.

Gardner (1983) ning ko'p intellektlar nazariyasi esa iqtidorlilikni faqat akademik ko'rsatkichlar bilan emas, balki musiqiy, harakatli, ijtimoiy va boshqa ko'plab sohalardagi salohiyat bilan ham o'lchash mumkinligini isbotladi.

Xorijiy tajriba nuqtayi nazaridan AQSHdagi STEM va GATE dasturlari, Finlandiyada qo'llaniladigan individual o'quv yo'nalishlari, Singapurdagi enrichment (boyitish) dasturlari alohida e'tiborga sazovor.

Mahalliy tadqiqotlar orasida esa O'zbekiston olimlaridan Q. Yo'ldoshev, N. Muslimov va boshqalarning iqtidorli yoshlar bilan ishlash metodikasiga bag'ishlangan ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maxsus ta'lim dasturlari deganda, iqtidorli talabalarning intellektual, ijodiy va emotsional ehtiyojlarini qondirish maqsadida standart o'quv dasturlaridan tashqarida yoki ularni chuqurlashtirish yo'li bilan ishlab chiqilgan pedagogik tizim tushuniladi. Bunday dasturlar bir necha asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi.

- *Birinchi yo'nalish* – **tezlashtirilgan ta'lim (acceleration).** Bu yondashuv doirasida iqtidorli talabalar o'z tengdoshlariga nisbatan tezroq sur'atda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, ikki yillik kursni bir yilda tugallash, yuqori sinflar yoki kurslar materiallarini oldindan o'zlashtirish shular jumlasidandir.
- *Ikkinchi yo'nalish* – **boyitish dasturlari (enrichment).** Ushbu yondashuv talabalar bilimini chuqurlashtirish va kengaytirish, ularni ijodiy loyihalar, tadqiqotlar va muammoli vaziyatlar bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Renzullining "Maktab turniket modeli" aynan shu yondashuv asosiga qurilgan.
- *Uchinchi yo'nalish* – **guruhlashtirish (grouping).** Iqtidorli talabalarni alohida guruhlarda o'qitish ularga hamfikr tengdoshlar bilan hamkorlikda ijodiy va intellektual jihatdan rivojlanish imkonini beradi. Bunday muhit raqobatbardosh, lekin bir vaqtda qo'llab-quvvatlovchi bo'ladi.
- *To'rtinchi yo'nalish* – **mentorlik va individual ta'lim.** Bu yondashuvda har bir iqtidorli talaba uchun individual rivojlanish yo'l xaritasi tuziladi va unga tajribali ustoz – mentor biriktiriladi. Mentor nafaqat bilim beradi, balki ijodiy izlanish jarayonini yo'naltiradi va talabaning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ijodiy salohiyat – bu shaxsning yangi, original g'oyalarni yaratish, muammolarga noodatiy yechimlar topish va mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo'llash qobiliyatidir. Psixolog E.P. Torrance (1962) ijodiy fikrlashning to'rtta asosiy komponentini ajratib ko'rsatadi: ravonlik (fluency), moslashuvchanlik (flexibility), originallik (originality) va ishlab chiqish (elaboration). Maxsus ta'lim dasturlari aynan shu komponentlarni maqsadli rivojlantirishga yo'naltirilmog'i lozim. Amaliyotda ijodiy salohiyatni rivojlantirishning quyidagi samarali usullari keng qo'llaniladi: muammoli ta'lim (Problem-Based Learning), loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning), dizayn fikrlash (Design Thinking), keyslar yechimi (Case Studies), simulyatsiya va rolli o'yinlar. Bu metodlar talabani passiv bilim qabul qiluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, ijodiy muhitni yaratish ham kamida metodlarni qo'llash kabi muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtidorli talabalar xato qilishdan qo'rqmasdan tajriba o'tkaza oladigan, o'z g'oyalarini erkin ifoda eta oladigan va tanqidiy fikrlashga rag'batlantirilgan muhitda eng yuqori natijalarni ko'rsatadi. Carol Dweck (2006) ning "o'sish tafakkuri" (growth mindset) nazariyasi ham ushbu xulosani tasdiqlaydi: intellektual qobiliyatlarni o'zgarmas deb emas, balki sa'y-harakat va mashq orqali rivojlantirilishi mumkin deb qabul qilish kreativlikni sezilarli darajada oshiradi.

Maxsus ta'lim dasturlarini amaliyotga joriy etishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish tavsiya etiladi.

- *Birinchidan,* dastur iqtidorli talabani aniqlash bosqichidan boshlanishi lozim. Bu bosqichda faqat akademik ko'rsatkichlarga emas, balki ijodiy fikrlash testlari (masalan, Torrance Tests of Creative Thinking – TTCT), o'qituvchi va ota-onalar bilan suhbatlar, portfolio tahlili kabi kompleks baholash vositalariga tayanish maqsadga muvofiq.
- *Ikkinchidan,* dastur moslashuvchan bo'lishi kerak. Har bir iqtidorli talabaning qiziqishlari, kuchli va zaif tomonlari har xil bo'lgani sababli, yagona "qolip" dastur barcha uchun bir xil samara bermaydi. Differensiatsiyalashgan ta'lim prinsipi asosida individual o'quv yo'nalishlari ishlab chiqilishi va muntazam ravishda yangilanib turilishi zarur.
- *Uchinchidan,* talabaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham e'tibor berish lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtidorli talabalar ko'pincha perfektsionizm, ijtimoiy izolyatsiya yoki haddan ziyod tanqidiylik kabi psixologik muammolarga duch keladi.

Maxsus dasturlar doirasida psixologik qo'llab-quvvatlash, guruhli ishlash va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish komponentlari bo'lishi shart. Dastur samaradorligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi: bilim va ko'nikmalar darajasining o'sishi (pre/post test), ijodiy ishlar va loyihalar sifati, talabaning o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari (metakognitiv refleksiya), olimpiada, musobaqa va ilmiy anjumanlardagi natijalari, ta'lim jarayoniga qiziqish va motivatsiya darajasi. Ushbu mezonlar kompleks tarzda qo'llanilganda dastur to'liq samaradorligi haqida ob'ektiv tasavvur hosil qilish mumkin.

Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – bu faqat pedagogik texnologiya masalasi emas, balki keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy vazifadir. Ijodiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan va innovatsion yondashuv bilan muammolarni hal qila oladigan shaxslarni tarbiyalash – bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan nazariy asoslar, dastur turlari va amaliy tavsiyalar shuni ko'rsatadiki, samarali maxsus ta'lim dasturlari uchun uch omil muhim: ilmiy asoslangan metodologiya, moslashuvchan va individual yondashuv hamda qulay ijodiy muhit. Ushbu uch omil bir-birini to'ldirgan holda iqtidorli talabalarning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli ko'rinadi:

- maxsus dasturlarning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish;
- raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni iqtidorli talabalar bilan ishlashda qo'llash imkoniyatlari;
- O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan mahalliy modellarni ishlab chiqish.

Bu yo'nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar milliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". www.lex.uz/uz/docs/-5030957
2. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021.
3. Yo'ldoshev, Q.Q. (2010). Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi.
4. Muslimov, N.A. (2018). Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son Qonuni "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida". www.lex.uz/uz/docs/-3026246
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". www.lex.uz/uz/docs/-4312785
7. Sternberg, R.J., & Davidson, J.E. (Eds.). (2005). Conceptions of Giftedness (2nd ed.). – Cambridge: Cambridge University Press.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №4(1)**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.